

Adabiy Talqinda So'z, Obraz Va G'oya Nisbati

Qurbanbayev Ilhombek Aminbayevich¹, Boltaboyev Omonboy Yo'ldosh o'g'li²

Anatatsiya: Maqolada matni tushunish jarayoni o'ziga xosligi, adabiy talqinda obyektiv voqelik va subyektiv munosabat sintezi, ma'noni sharhlash usullari qo'llanmasi, mantiqiy fikr sillogizmida so'z, obraz va g'oya aloqasi nazariy umumlashtiriladi. Unda mohiyatni anglash va qiymatini estetik baholash, kuzatishda qism va butun yaxlitligini belgilash, tajribada tagma'no hamda kontekst muqobilligini aniqlash xususida mushohada yuritiladi. Aslida interpretatsiya istilohi muddao, uslub hamda vazifani markazlashtiradi va muqoyasani maxsus nutq tipiga aylantiradi.

Kalit so'zlar: adabiy talqin, so'z, obraz, muqoyasa, g'oya, munosabat, mohiyat.

KIRISH

Adabiy talqin voqeilik mohiyati va munosabat ottenkasini birlashtiradigan muhim omil, unda anglash hamda baholash mezonlari yaxlitlashadi. Tasvir predmetini belgilash, hukm-xulosa dalolatini oydinlashtirish hamda yondosh vositalar (so'z-obraz-g'oya) yordamida mantiqiy bog'lamni tadqiq etish uning o'ziga xosligini tashkil etadi. Aslida idrok sezgisida tipologik mushtaraklik va individual xususiyat g'alati tarzda omuxtalashadi. Vaholanki, "adabiy matn kitobxon tomonidan o'zlashtirilgach, o'quvchining o'ziga xos ijodi bilan to'yingach, badiiy asar huquqini oladi. Matn – hali badiiy asar emas. Matnning badiiy asarga aylanishi – kitobxon tomonidan o'zlashtirilishi, tasdiqlanishi – murakkab jarayon. Uning o'z muammolari, ruhiy-ma'naviy jarayonlari, mutaxassislargina anglaydigan qurilmalari mavjud" [5, 96]. Joriy holatda g'oya matn badiiy to'qimalariga singdiriladi, obraz unga eltadigan yo'nalish, so'z ma'no tayanch markazini belgilaydi. Badiiy asar tasavvur maydoni, kitobxon zavqi va davr ruhiyati adabiy talqin uchun kalit vazifasini o'taydi. Muallif konsepsiyasidagi o'zgarishlar masalani ochiqlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiy talqin qism va butun zanjriga tayanadi, mushohada pozitiv mustaqilligi hamda ma'naviy daxlsizligi muammo ikki xususiyatini tavsiflaydi. Unda til, nutq va tafakkur bog'lami idrok diametrlarini belgilaydi. Dunyoqarashda tahlil malakasi takomillashadi, inchunun, falsafa va mantiq g'alati tarzda omuxtalashuvi hissiy idrok sezgisini murakkablashtiradi. Ijodiy inersiyaga yig'ilgan quvvat-hofiza sotsial aqidadan yuksak salohiyat hosil qiladi. Ayni paytda, "ijodkor mudom harakatdagi tafakkurida kurtak ochgan badiiy fikrning o'ziga xos halqasini tashkil qiluvchi muayyan obrazda estetik nigoh, lirik harorat mujassam. Shu bois ham unga real hayot bilan aynanlik maqomini berish mumkin emas. Illo badiiy haqiqat hayot haqiqati bo'lmay, ong va tuyg'u – ruhoniy nazar ifodasining uyg'unligidan hosil bo'luvchi go'zallik sifatida matnga tayanib, ijodkor mikroolamiga kechinmadoshlik orqali poetik idrok etiladi [4, 252]. Sabab va oqibat aloqadorligini aniqlash salohiyatga tutashadi, unda vazifadoshlik asosiy o'ringa chiqadi. Adabiyotshunoslik nazariyasi va estetikasida adabiy talqin talqin tabiati, obrazlilik va badiiylik nisbati, lirikada tasvir predmeti hamda voqelikni badiiy-estetik idroklash malakasi bo'yicha boy ilmiy tajriba to'plangan. Xususan, Aristotelning "Ritorika. Poetika" (2000), Gegelning "Estetika" (1971), V.G.Belinskiyning "Polnoye sobraniye sochineniy" (1954), F.Shellingning "Filosofiya iskusstva" (1966), B.Eyxnbaumning "O literature" (1987), R.Bartning "Izbranniye raboti: Semiotika. Poetika" (1989), Yu.Borevning "Estetika" (2002), V.M. Jirmunskiyning "Teoriya literaturi. Poetika. Stilistika" (1977), L.Timofeevning "Slova v stixe" ((1982), M.B.Xrapchenkoning "Gorizonti xudojestvennogo obraza" (1986), V.E.Xalizevning "Teoriya literaturi" (2006), I.Sulonning "Adabiyot nazariyasi" (2005), O.Sharofiddinovning "Birinchi mo'jiza" (1979), B.Sarimsoqovning "Badiiylik mezonlari va asoslari" (2004), B.Nazarovning "Hayotiylik – bezvol mezon" (1985), I.G'afurovning "Lirikaning yuragi" (1982), Q.Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" (2006), N.Rahimjonovning "Davr va o'zbek lirikasi" (1979), N.Jabborovning "Zamon, mezon, she'riyat" (2015), A.Sabirdinovning "Oybek she'riyatida so'z va obraz" (1993), B.Akramovning "Problema poeticheskogo obraza v sovremennoy uzbekskoy lirike" (1991), J.Jumaboyevaning "XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati" (1999), B.Norboyevning "Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari" (1996), Ilhombek Qurbanbayevning "90-yillar o'zbek she'riyatida obrazlilik" (2005) asarlarida masalaning u yoki bu jihatlarini nazariy jihatdan umumlashtiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiy talqin muhim jihatlaridan biri struktura yaxlitlikda namoyon bo'ladi. Vaholanki, muayyan matn mukammal poetik tizim bo'lishi uchun mohiyat tugalligi ta'minlanmogi lozim. Bu esa shakl, asar va adabiy tizim orasida shakllanadigan mantiqiy aloqa bog'lamini taqozo etadi. Demak, ijod falsafasiga ko'ra chambarchaslik qonuniyati bir jihatdan, qadriyaviy mezon va biosotsiologik maydon ichki munosabatiga bog'liq. Ayni paytda, ma'no ichki butunligi yonma-yon joylashgan badiiy shakl muqarrarligidan tashqari, ularning bir-biridan keskinlashgan tafvutini ham talab etadi. Negaki, ijod

¹ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

² Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini assistenti

jarayonida janr poetik uyg'unlikni ta'minlovchi yetakchi omil sanaladi. Agar biz shaxs maqomi tabiat va jamiyat uzviy aloqadorligini birlashtirishini nazarda tutsak, joriy holatni badiiy tizimga muqoyasa qilishimiz oson kechadi. Aynan pirovard butunlik zalvori barqarorlik, aloqadorlik hamda tugallanganlik aloqasi uzluksizligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muttasil yangilanadigan adabiy mohiyatda ijodiy mayl o'ziga xosligini hayotiy tajriba, aqliy manfaat va idrok tanholigi tayin etadi. Binobarin, hissiy ong silsilasidan iborat badiiy g'oya alohidaligi tahlil predmetiga individual yondashuvni taqozolaydi. Uning xos darajasini janr, matn hamda adabiy tizim bosqichlariga taqsimlash mumkin. Tasnif shartliligini e'tibordan soqit qilmagan holda joriy istiloh murakkab ijodiy tashkilotga intilishini e'tirof etish joiz. Aslida badiiy nazorat boshqaruvi poetik xotira shakllanish tarzi ko'pqatlamligini hosil qiladi. Ma'no tug'ilishi va mohiyat tashkil topishi bir-biriga bog'liq, ayni paytda, bir-birini inkor etadigan tushunchalar. Agar dastlabki bosqichda tasvir mavjudligi ustuvor ahamiyat kasb etsa, keyingi holatda ifoda mantiqiy jihatdan dalolatlanadi. Unda tasavvur va tahlil malakasi muqobillashadi.

"Badiiy asar go'yo bir jonli organizmdir: organizm jonsiz yashay olmaganidek, «jon» ham tanasiz o'zini namoyon qilolmaydi. Jonli organizmning eng kichik hujayrasi ham unda aylanib turgan iliq qon tufayli yashagani kabi, badiiy asarning har bir katta va kichik qismi ham unga hayot baxsh etib turgan mazmun tufayli yashaydi va shu mazmunning nishonasi, tashqi ifodasi bo'lib xizmat etadi" [3, 163], - yozadi O'zR FA akademigi I.Sulton. Nazariy qarashda bir nechta jihat e'tiborni tortadi. Birinchidan, badiiy asar o'z ichki qonuniyatlari vositasida shakllanadigan poetik tizim, ikkinchidan, matn ittifoqi shakl, mazmun va uslub nisbiy daxlsizligini ta'minlaydigan estetik qadriyat, uchinchidan, ijodiy aloqalantirilgan munosabatlar jamuljami ifoda intizomida o'z mantig'i hamda maromiga yetadi. To'g'rirog'i, hayotiy qamrov darajasi va ijodiy talqin o'ziga xosligi shaxsiy dunyoqarash husnixatida yorqin mazmun-mohiyat kasb etadi.

To'g'ri, tasvir ruhiyati va ifoda davomati yaxlitligi adabiy talqin umumiy manzarasini belgilaydi. Biroq badiiy ifoda ijodiy imkoniyatlari cheklanganligi va barqarorligi muallifning pozitsiya taqozosini o'zgartirishga intilishi bilan to'qnashadi. Tugallik va adabiy intizom har bir poetik idrok uchun xos xususiyat. Shu ma'noda, ijod tabiati xilma-xil poetik usullarni jamlaydi. Aniqrog'i, shakl, mazmun va uslubaro badiiy munosabatni qayta tiklash uning asosiy vazifasi sanaladi. Teran tahliliy muhokama matn butunligini ta'min etadi. Aynan materiyani «badiiy tadqiqot teranligiga yo'naltirish» tizimi moddiy va ma'naviy qadriyat mezonlari xilma-xilligidan o'sib chiqadi. Unda hayot haqiqati badiiy talqin vositasida to'ldiriladi, boyitiladi va tartibga solinadi. Voqelik tahlili jarayonida mohiyat badiiy yaxlitlikka erishgan kategoriyaga aylanadi.

Adabiy talqinda qahramon markazini belgilash muayyan badiiy mezonlarga tutashadi. To'g'rirog'i, muallif shaxsidan obraz poetik konsepsiyasiga ko'chadigan mantiqiy bog'lam faoliyat va ruhiy holatni uyushtirishga xizmat qiladi. Aslida hayotiy qamrov – mavhum va ko'p qirrali tushuncha, uni individuallashtirish ijodkor adabiy mahoratiga payvandlanadi. Bu borada ijodkor fitrati mavzu hamda janr taqozosi ittifoqini hosil qiladigan yetakchi omilga evriladi. Aynan aniq ijtimoiy-ma'naviy davr ruhiyati silsilasida muayyan obraz ifoda, talqin hamda tahlilini topar ekan, bilim va tadqiqot vobastaligi estetik baholash tamoyillarini belgilaydi. G'oya hamda maqsad mushtarakligini namoyish qiladigan nuqtayi nazar qayta tiklangan badiiy xarakter iroda yo'nalishi takomilida o'z maromiga yetadi. Adabiy talqin malakasi dunyoqarash falsafasini poetik idrok etish o'ziga xosligi bilan o'lchanadi. Joriy vazn voqelik ijtimoiy-ruhiy, milliy-umuminsoniy jihatlar qamrovi, sharoit taqozosi va xarakter tadriji amaliy ishlanmasi teranligi, tasvir ruhiyati – tahlil qamrovi – talqin davomiyligi sinteziga payvandlanadi. Zotan, nasrda shakl, mazmun va uslub markazlashuvini ta'minlaydigan yetakchi omil – rivoya texnikasi individuallashtiradi. To'g'rirog'i, tasavvur uzluksizligini tayin etishda dunyoqarash tig'izlashuvi muhim o'rin egallaydi. Ayni paytda, badiiy janr takomili ham ichki, ham tashqi mazmunni uyushtiradigan estetik salmoq ifoda yo'siniga tutashadi. Shu nuqtai nazardan, adabiy talqin ham matn badiiy voqeligi, ham ijodkor fitratiga yo'l ochadi. Shartli raqobat (dunyoqarash va real manzara bir-biriga o'tishi) tavsifi adabiy mahorat majmuiga nisbatan mantiqiy bog'lam yaratadi.

Inson dunyoqarashi yuksalgan sari unda qoniqmaslik hissi ham kuchayadi. Jarayon tez orada miqyos va nisbat kasb etarkan, olam va odamga pozitiv munosabat darajasi shakllanadi. Inson yoki millat dunyoga chiqib, o'zga rasm-rusumlarga yaqinlashayotganda, tasvir ruhiyati ifoda asosiy vositasiga aylanadi. Negaki, bunday vaqtda estetik tafakkur voz kechilayotgan milliy qadriyatlardan bir qadar zada, o'zlashtirilayotgan begona qadriyatlarga esa bir muncha yot bo'ladi. Inson va jamiyat sifat miqdoridan ikkinchisiga intilganda murakkab jarayon yuzaga keladi. Shunda shaxsda o'ziga nisbatan murosasizlik hosil boladi. Joriy holat ichki madaniyat belgisi sifatida munosabat hamda baholash mezonlari o'ziga xosligini belgilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Adabiy talqin muallif iste'dod darajasi, ijodiy qiyofasi, tafakkur tarzi, ifoda yo'sini, adabiy an'analarga munosabatiga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Nisbatan qisqa vaqt ichida so'z va e'tiqod erkinligi poetik idrokka ham o'z ta'sirini ko'rsatgani barchaga ma'lum. Yanada aniqrog'i, ijodiy individuallik badiiy asar barcha shakliy-mazmuniy sathlarida birdek ijobiy ta'sir o'tkazdi. Ayni paytda, har bir poetik mahorat tajriba hamda an'ana birikuviga tayanadi.
2. So'z va obraz nisbati adabiy talqin uchun material vazifasini o'taydi. Unda did va saviya qamrovi, fikrlash malakasi o'ziga xosligi hamda ijodiy-ilmiy quvvat bir-biriga omuxtalashadi.
3. Adabiy talqin inson ruhiyati rang-barangligini tushunish, tasvirlash hamda tahlillash malakasini yaxlitlashtiradi. Aynan poetik g'oya mundarijasi borliq va inson omilini ijtimoiy munosabatdorlikda o'rganadi. Odamzod shuurini band etgan

muammo badiiy tahlili ijod solnomasini tayin etadi. Unda maqsad-intilishlar, manfaat-ehtiyojlar soʻz va gʻoyada qabariq tasvir hosil qiladi, unda ong va tuygʻu jipslashadi, unda tasavvur hamda taassurot uygʻunlashadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʻiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. –Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
2. Adabiyot nazariyasi. 1-jild. - Toshkent: Fan, 1978.
3. Ízzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O`qituvchi, 1986.
4. Yoqubov I. Badiiy-estetik soʻz sehri. –Toshkent: TDPU, 2011.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. - Toshkent: Sharq, 2007.
6. <http://www.ziyouz.com/>.